

Bill Gates



Gates 2017-yilda

Tavalludi	William Henry Gates III 28-oktyabr 1955-yil (67 yosh) Seattle, Washington, AQSh
Fuqaroligi	 AQSh
Ta'limi	Harvard universiteti (tashlab ketgan)
Kasbi	Dasturchi · investor · ishbilarmon
Faoliyat yillari	1972 – hozirgacha
Turmush o'rtog'i	Melinda French Gates (<small>turm.</small> 1994; <small>ajr.</small> 2021) ^[1]
Bolalari	3
Otasi	Bill Gates Sr.
Onasi	Mary Maxwell
Veb-sayti	gatesnotes.com 

Imzosi

William H. Gates III

William Henry Gates III (o'qilishi: Uilyam Henri Geyts Uchinchi; 1955-yil 28-oktyabrda tug'ilgan) [amerikalik biznes-magnat](#), [dasturchi](#), [investor](#), [yozuvchi](#) va [filantropdir](#). Gates bolalikdagi do'sti [Paul Allen](#) bilan birgalikda hozirda jahonning eng yirik [AT](#)-industriya kompaniyasi bo'lmish [Microsoftga](#) asos solgan[2][3]. U [Forbes](#) jurnalining [dunyodagi eng badavlat kishilar ro'yxatida](#) ko'p yillar davomida birinchi o'rinni egallab kelgan[4] Gates qo'lida Microsoft ulushining 1,6 foizi mavjud.[5]. Gates, shuningdek, bir necha kitoblar muallifi hamdir.

[Shaxsiy kompyuter inqilobining](#) yirik arboblardan biri bo'lgan Gates [monopoliyada](#) ayblanib [tanqid etilgan](#)[6].

Shu bilan birgalikda Gates ko'plab ehsonlar qilgan: 2000-yilda rafiqasi bilan tuzgan [Bill & Melinda Gates Foundation](#) jamg'armasi orqali tibbiy va ilmiy tadqiqotlarga [\\$36](#) milliarddan oshiq xayriya ulashgan[7][8].

Gates 2000-yil yanvarida Microsoft bosh ijrochi direktori lavozimidan voz kechib, raislikka o'tdi. 2006-yil iyunida u Bill & Melinda Gates Foundation jamg'armasida ishlashini e'lon qildi. 2008-yil 27-iyunida Gates Microsoft'dagi oxirgi to'liq ish kuniga chiqdi. Hozirda u kompaniya ishlariga deyarli aralashmaydi.

Turmush o'rtog'i [Melinda Gatesga](#) 1994-yili uylangan. Uch farzandi bor: qizlari Jennifer Katharine (1996-yil tug'ilgan) va Phoebe Adele (2002-yil tug'ilgan) hamda o'g'li Rory John (1999-yil tug'ilgan). Bill Gates dindor emas, o'zini [agnostik](#) deb ta'riflaydi[9][10].